PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI
ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

O‘ZBEKISTONDA SOG‘LIQNI SAQLASH TIZIMINI TARTIBGA SOLUVCHI NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR VA ULARNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI TAHLILI

Boirov Jamshidjon Ikromjon o‘g‘li
Mustaqil izlanuvchi
mrboirovjamshid@gmail.com
+99895-155-95-56
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20355598

Annotatsiya

Maqolada O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarning shakllanishi, takomillashuvi va bosqichma-bosqich transformatsiyasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda sog‘liqni saqlash tizimining konstitutsiyaviy asoslari, bazaviy tarmoq qonunlari, maxsus yo‘nalishlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar hamda 2018–2025 yillarda qabul qilingan tizimni isloh qilishga qaratilgan hujjatlarining mazmuni ochib beriladi. Muallif sog‘liqni saqlash tizimi rivojida umumiy huquqiy poydevor yaratish, ixtisoslashgan huquqiy tartibga o‘tish, boshqaruvni modernizatsiya qilish, sanitariya-epidemiologik xavfsizlikni kuchaytirish, davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini joriy etish va birlamchi bo‘g‘inni qayta tashkil etish bosqichlarga ajratadi. Tadqiqot natijasida O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash tizimini normativ-huquqiy tartibga solishning rivojlanishi “davlat kafolati — institutsional boshqaruv — moliyalashtirishning yangi modeli — xizmatlar sifati va ochiqligi” shaklida rivojlanayotgani asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: sog‘liqni saqlash tizimi, normativ-huquqiy tartibga solish, konstitutsiyaviy kafolat, davlat tibbiy sug‘urtasi, jamoat salomatligi, sanitariya-epidemiologik osoyishtalik, sog‘liqni saqlash islohotlari.

Sog‘liqni saqlash tizimi har qanday davlatning ijtimoiy siyosatida strategik ahamiyatga ega bo‘lgan institutlardan biridir. Uning samarali faoliyat yuritishi nafaqat tibbiy infratuzilma yoki moliyaviy resurslarga, balki sohani tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazaning mukammalligi, izchilligi va zamonaviy tahdidlarga moslashuvchanligiga ham bog‘liq. O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash tizimining huquqiy asoslari mustaqillikdan keyingi davrda bosqichma-bosqich shakllandi, shuning bilan birga 2018-yildan keyin ushbu tizim chuqur institutsional va moliyaviy islohotlar bosqichiga kirdi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya esa bu jarayonni konstitutsiyaviy darajada mustahkamlab, fuqarolarning sog‘liqni saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqini, shuningdek davlat hisobidan kafolatlangan tibbiy yordam olish huquqini aniq belgilab berdi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, sog‘liqni saqlash tizimidagi islohotlar ko‘pincha alohida hujjatlar yoki institutsional o‘zgarishlar kesimida ko‘rib chiqiladi, biroq ularning rivojlanish bosqichlari tizimlashtirilmagan. Aslida, normativ-huquqiy hujjatlar sog‘liqni saqlash tizimida faqat boshqaruvni tartibga solish vositasi emas, balki xizmatlar hajmi, sifat standartlari, davlatning majburiyatlari, xususiy sektor ishtiroki, sanitariya xavfsizligi va sug‘urta mexanizmlarini belgilovchi asosiy institutsional omildir. Shu bois mazkur maqolada O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimini tartibga soluvchi asosiy normativ-huquqiy hujjatlar ilmiy-tahliliy yondashuv asosida umumlashtirildi.

Tadqiqot normativ-huquqiy tahlil, tizimli yondashuv, qiyosiy-huquqiy talqin va institutsional tahlil metodlari asosida olib borildi. Avvalo, sog‘liqni saqlash sohasini tartibga soluvchi asosiy va sohaviy maxsus qonunlar, Prezident farmonlari, qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining tegishli hujjatlari mazmuni tahlil qilinadi. So‘ngra ushbu hujjatlar qamrab olgan tartibga solish obyekti, ularning amaliy vazifasi, davlat boshqaruvi va moliyalashtirish mexanizmlariga ta’siri aniqlashtirildi.

Tadqiqotda sog‘liqni saqlash tizimi rivojlanishi shartli ravishda olti bosqichga ajratildi: bazaviy huquqiy poydevor davri, ixtisoslashgan tartibga solish davri, tizimli modernizatsiya davri, pandemiyadan keyingi sanitariya xavfsizligi bosqichi, davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini joriy etish davri va yangi hududiy-model bosqichi.

Birinchi bosqich. O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimining huquqiy asosi 2023-yilda qabul qilingan Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 48-moddasida ifoda etilgan. Mazkur moddaga ko‘ra: har kim sog‘lig‘ini saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega ekanligi, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari tibbiy yordamning kafolatlangan hajmini qonun da belgilangan tartibda davlat hisobidan olishga haqliligi, davlat sog‘liqni saqlash tizimini, uning davlat va nodavlat shakllarini, tibbiy sug‘urtaning har xil turlarini rivojlantirish, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini ta’minlash choralarini ko‘rishi belgilangan. Mazkur norma sog‘liqni saqlashni shunchaki huquq sohasining tarmoq siyosati emas, balki konstitutsiyaviy kafolat darajasiga ko‘tardi.

Sog’liqni saqlash tizimining bazaviy qonuni sifatida 1996-yil 29-avgustda qabul qilingan “Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida”gi qonun alohida ahamiyatga ega. Ushbu qonun sog‘liqni saqlash sohasidagi davlat siyosatining umumiy tamoyillari, fuqarolarning sog‘liqni saqlashga oid huquqlari, tibbiy yordam ko‘rsatishning umumiy tartibi, profilaktika, diagnostika, davolash va reabilitatsiya bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soldi. Mazkur qonun keyingi davrda qabul qilingan ko‘plab maxsus qonunlar uchun konseptual va huquqiy poydevor vazifasini bajardi.

Shu bilan birga, 1997-yilda qabul qilingan “Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to‘g‘risida”gi qonun farmatsevtika sohasini alohida huquqiy tarmoq sifatida shakllantirdi. U dori vositalarini ishlab chiqarish, ro‘yxatdan o‘tkazish, realizatsiya qilish va farmatsevtika faoliyatini tashkil etishning asosiy qoidalarini belgilab berdi. Natijada sog‘liqni saqlash tizimi faqat davolash faoliyati bilan emas, balki farmatsevtika xavfsizligi va farmatsevtik boshqaruv bilan ham mustahkam bog‘langan yagona normativ tizim sifatida rivojlana boshladi.

Ikkinchi bosqich. Shuningdek, 2000-yillardan boshlab O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash tizimining alohida yo‘nalishlarini mustaqil qonunlar bilan tartibga solish tendensiyasi kuchaydi. Xususan, 2001-yilda “Aholini sil kasalligidan muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinib, sil kasalligining oldini olish, barvaqt tashxis qo‘yish va davolash bo‘yicha maxsus institutlar va profilaktik choralar mustahkamlandi. 2002-yildagi “Qon va uning tarkibiy qismlari donorligi to‘g‘risida”gi qonun esa donorlikning xavfsizlik standartlari va tashkiliy-huquqiy asoslarini belgilab berdi. 2013-yilda “Odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan kasallik (OIV infeksiyasi) tarqalishiga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonun, 2019-yilda fuqarolarning reproduktiv salomatligi, 2021-yilda psixiatriya yordami, 2022-yilda esa “Inson a’zolari va to‘qimalarining transplantatsiyasi to‘g‘risida”gi qonunlar qabul qilindi. Bu qonunlarning qabul qilinishi sog‘liqni saqlash tizimi umumiy tarmoq boshqaruvidan ixtisoslashgan tibbiy-huquqiy boshqaruv modeliga o‘tayotganini ko‘rsatadi.

Mazkur bosqichning ilmiy ahamiyati shundaki, sog‘liqni saqlash tizimi murakkablashgani sari yagona bazaviy qonun barcha yo‘nalishlarni to‘liq qamrab ololmay qoldi. Natijada qonunchilikda kasalliklar, xizmat turlari va tibbiy amaliyotning alohida shakllari bo‘yicha maxsus huquqiy mexanizimlar paydo bo‘ldi. Bu esa davlatning tibbiy xavflarni boshqarish salohiyatini oshirdi, biroq bir vaqtning o‘zida sohaviy qonunchilikni uyg‘unlashtirish zaruratini ham kuchaytirdi. Mazkur holat O‘zbekiston sog‘liqni saqlash huquqining tarmoqlashuv va differensiallashuv bosqichiga kirganini anglatadi.

Uchinchi bosqich. O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimida sifat jihatidan yangi bosqich 2018-yil 7-dekabrdagi PF-5590-sonli “O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmon bilan boshlandi. Mazkur

hujjat sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni belgilab, islohotlarning eng muhim yo‘nalishlarini, jumladan boshqaruvni modernizatsiya qilish, xizmatlar sifati va ommabopligini oshirish, moliyalashtirish mexanizmlarini qayta ko‘rib chiqish hamda raqamlashtirishni jadallashtirish vazifalarini kun tartibiga chiqardi. Yana bir PQ-4055-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qabul qilingan qaror esa Sog‘liqni saqlash vazirligi faoliyatini tashkil etish, uning vazifalari, tuzilmasi, hududiy organlari va ularning funksional vakolatlarini aniqlashtirishga xizmat qildi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 12-sentyabrdagi 714-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori bilan vazirlikning maqomi, vazifalari va javobgarligi belgilangan bo‘lsa, 2018-yildan keyingi qonunchilikdagi islohatlar bu tizimni yanada amaliy va islohotchi vazifalar bilan to‘ldirishga xizmat qildi.

Ushbu bosqichning asosiy xususiyati shundan iboratki, normativ-huquqiy islohotlar alohida hujjatlar yig‘indisi sifatida emas, balki strategik boshqaruv modeli sifatida namoyon bo‘ldi. Bu orqali, avval muammo va ustuvor yo‘nalishlar aniqlandi, so‘ngra ularni amalga oshiruvchi tashkilotlar va mexanizmlar qayta shakllantirildi. Bu yondashuv sog‘liqni saqlash tizimini “xarajatlarni taqsimlovchi ma’muriy tizim”dan “natijaga yo‘naltirilgan boshqaruv tizimi”ga aylantirishga qaratilgan edi. Aynan shu bosqich keyingi sug‘urta, elektron sog‘liqni saqlash va jamoat salomatligi bo‘yicha huquqiy yangilanishlarga zamin yaratdi.

To‘rtinchi bosqich. Pandemiya boshlanishi 2020-yil sog‘liqni saqlash tizimining normativ rivojida alohida burilish davri bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 27-iyuldagi PQ-4790-son “O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi tizimini tubdan takomillashtirishga qaratildi. Ushbu qaror bilan sanitariya-epidemiologiya xizmati va uning hududiy bo‘linmalarining vakolatlari, mustaqilligi hamda boshqaruv tizimidagi o‘rni kuchaytirildi. Keyingi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 29-yanvardagi 48-sonli qarori bilan Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlandi.

Mazkur bosqichning mazmuni sog‘liqni saqlashni faqat shifoxona va poliklinikalar faoliyati doirasida emas, balki jamoat salomatligi, epidemiologik monitoring, sanitariya xavfsizligi va profilaktika bilan bog‘liq yaxlit tizim sifatida ko‘rishga o‘tishda namoyon bo‘ladi. Pandemiya tajribasi normativ-huquqiy tartibga solishda tezkorlik, vakolatlarning aniqligi va tarmoqlararo koordinatsiya naqadar muhim ekanini ko‘rsatdi. Shu ma’noda, 2020-yildan keyingi huquqiy o‘zgarishlar O‘zbekistonda “davolash markazli model”dan “jamoat salomatligi markazli model”ga o‘tishning muhim bosqichi bo‘ldi, degan xulosaga kelish mumkin. Ushbu xulosaga bevosita normativ hujjatlar mazmuni va ularda belgilangan boshqaruv vakolatlari asosida kelish mumkin.

Beshinchi bosqich. So‘nggi yillarda sog‘liqni saqlash tizimining eng muhim normativ yo‘nalishlaridan biri sifatida davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini joriy etish bilan bog‘liq bo‘ldi. Bu yo‘nalish dastlab hududiy tajriba sifatida PQ-4890-sonli “Sog‘liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini Sirdaryo viloyatida joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror bilan yo‘lga qo‘yilib, keyinchalik respublikaning boshqa hududlarida joriy etilishi belgilandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-sentabrdagi PQ-311-sonli “Davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini joriy etishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori davlat tibbiy sug‘urtasi doirasida bepul tibbiy xizmatlar va dori vositalarini davlat budjeti hisobidan moliyalashtirish, aholidan qo‘shimcha to‘lov undirilmasligi, tibbiy xizmatlar xaridi bo‘yicha shartnomaviy mexanizmlar, elektron axborot tizimlari integratsiyasi kabi qator yangi

tartiblarni mustahkamladi. Mazkur hujjat sog‘liqni saqlashni moliyalashtirishda an’anaviy “muassasani saqlash” – ya’ni shifoxonaning mavjudligini ta’minlash uchun byudjetdan mablag‘ ajratish modelidan “xizmatlar uchun to‘lash” – aholiga ko‘rsatilgan real tibbiy xizmat hajmi va natijasiga qarab moliyalashtirish modeliga o‘tishning normativ asosini yaratdi.

Buning ilmiy va amaliy ahamiyati shundaki, tibbiy yordamning kafolatlangan hajmini belgilash davlatning fuqarolar oldidagi majburiyatlarini yanada aniqroq ifodalaydi. Shu bilan birga, jamg‘arma, tibbiyot muassasalari va axborot tizimlari o‘rtasidagi shartnomaviy va raqamli aloqalar xizmat sifati, hisobdorlik va moliyaviy shaffoflikni oshirishga xizmat qiladi. Biroq bu model samarali ishlashi uchun tariflash, klinik standartlar, audit, ma’lumotlar sifati va raqamli integratsiya mexanizmlari bir xil darajada rivojlangan bo‘lishi lozim. Aks holda, moliyalashtirishning yangi modeli hududlar o‘rtasida tengsizliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

Oltinchi bosqich. 2025-yil sog‘liqni saqlash islohotlarida yangi bosqichni boshlab berdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 19-maydagi PQ-185-sonli “Sog‘liqni saqlash tizimidagi islohotlarni amalga oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida sog‘liqni saqlash tizimidagi islohotlarni amalga oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari, jumladan tuman va shahar bo‘g‘inida vertikal boshqaruvni isloh qilish, monitoringni kuchaytirish va “Tibbiyotda 90 kunlik o‘zgarishlar” dasturini amalga oshirish vazifalari belgilandi. Shu bilan birga Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 20-iyundagi 384-sonli “Respublikada aholiga birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini ko‘rsatish tizimini takomillashtirish bo‘yicha tajriba-sinov loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan sog‘liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli bo‘yicha tajriba-sinov loyihasi 2025-yil 1-iyuldan ayrim tuman va shaharlarda, 2026-yil 1-yanvardan esa Samarqand viloyatining barcha tuman va shaharlarida joriy etilishi nazarda tutilgan tartib belgilandi.

Mazkur bosqich sog‘liqni saqlash tizimidagi islohotlarning faqat markaziy darajada emas, balki hududiy va birlamchi bo‘g‘in darajasida amaliy sinovdan o‘tkazilayotganini ko‘rsatadi. Yangi modelning asosiy maqsadi tibbiy xizmatlarni aholiga yaqinlashtirish, birlamchi bo‘g‘in samaradorligini oshirish, tashkiliy yuklamani optimallashtirish va resurslarni qayta taqsimlashdan iborat. Shu jihatdan 2025-yilda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimida “normativ hujjat — pilot loyiha — institutsional yondoshish” mexanizmi shakllanganini ko‘rsatadi.

Xulosa.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimini normativ-huquqiy tartibga solish bir necha izchil bosqichlarda rivojlangan. Birinchi bosqichda bazaviy qonunchilik shakllantirilib, fuqarolarning sog‘liqni saqlash huquqi va sohaning umumiy tashkiliy asoslari belgilangan bo’lsa, ikkinchi bosqichda sog‘liqni saqlashning alohida yo‘nalishlari bo‘yicha ixtisoslashgan qonunlar qabul qilinib, sohaning tarmoq normativ-huquqiy hujjatlari rivojlantirildi. Uchinchi bosqichda 2018-yildan boshlab sog‘liqni saqlash tizimi boshqaruv, moliyalashtirish va raqamlashtirish nuqtai nazaridan modernizatsiya qilindi. To‘rtinchi bosqichda pandemiya omili sanitariya-epidemiologik xavfsizlik va jamoat salomatligi institutlarini kuchaytirdi. Beshinchi bosqichda davlat tibbiy sug‘urtasi, kafolatlangan tibbiy xizmatlar paketi va shartnomaviy moliyalashtirish mexanizmlarining normativ asosi yaratildi. Oltinchi bosqichda esa birlamchi bo‘g‘inni yangi model asosida qayta tashkil etish va hududiy pilot loyihalar orqali islohotlarni amaliy joriy qilish yo‘li tanlandi.

Shunday qilib, O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash tizimining normativ-huquqiy rivojlanish bosqichlari davlatning ijtimoiy majburiyatlarini aniqroq ifodalash, fuqarolarning kafolatlangan tibbiy yordamga bo‘lgan huquqlarini mustahkamlash, boshqaruvni markazlashgan tartibga solishdan natijaga yo‘naltirilgan va sug‘urta tamoyillariga asoslangan modelga o‘tkazish bilan farqlanadi. Kelgusida ushbu tizimning samaradorligi bevosita normativ asoslarning ichki bog‘liqligi, idoralararo

koordinatsiya, raqamli integratsiya, tizimdagi sifat nazorati va hududlar kesimida normalarning bir xil qo‘llanish darajasiga bevosita bog‘liq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023-yil 30-aprel.
2. O‘zbekiston Respublikasining 1996-yil 29-avgustdagi “Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida”gi qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasining 1997-yil 25-apreldagi “Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni..
4. O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 26-avgustdagi O‘RQ-393-son “Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to‘g‘risida”gi qonuni.
5. O‘zbekiston Respublikasining 2013-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-353-son “Odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan kasallik (OIV infeksiyasi) tarqalishiga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonuni.
6. O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 11-maydagi 216-II-son “Aholini sil kasalligidan muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonuni.
7. O‘zbekiston Respublikasining 2002-yil 30-avgustdagi 403-II-son “Qon va uning tarkibiy qismlari donorligi to‘g‘risida”gi qonuni.
8. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 11-martdagi O‘RQ-528-sonli “Fuqarolarning reproduktiv salomatligi to‘g‘risida”gi qonuni.
9. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-maydagi O‘RQ-690-sonli “Psixiatriya yordami to‘g‘risida”gi qonuni.
10. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 11-maydagi O‘RQ-768-sonli “Inson a’zolari va to‘qimalarining transplantatsiyasi to‘g‘risida”gi qonuni.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-dekabr, PF-5590-son “O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-dekabr, PQ-4055-son “O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-iyul, PQ-4790-son “Koronavirus pandemiyasini yumshatish, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi va salomatligini saqlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-sentabr, PQ-311-son “Davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini takomillashtirish va sog‘liqni saqlash tizimi muassasalarida tibbiy xizmatlar ko‘rsatishning yangi tartiblarini joriy etish to‘g‘risida”gi qarori.
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-may, PQ-185-son “Sog‘liqni saqlash tizimidagi islohotlarni amalga oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
16. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 20-iyundagi 384-son “Respublikada aholiga birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini ko‘rsatishning yangi modelini amalga oshirish doirasidagi tajriba-sinov loyihasini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.